Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 004

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQINI RAQAMLI MANZILLILIK SHAROITIDA TA’MINLASH: INKLYUZIYA VA EKSKLYUZIYA XATOLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Azizbek Xasanboy o‘g‘li Boliboyev[a,*], Manzura Manafovna Abdurahmonova[b]

[a] *Farg‘ona davlat universiteti*

[b] *Farg‘ona davlat universiteti, Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi Sot.f.d, prof.*

✉ azizbeeek96@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli reyestrlar asosida ijtimoiy yordamni manzilli taqsimlash amaliyoti Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 9-moddasida mustahkamlangan ijtimoiy ta’minot huquqi nuqtai nazaridan sotsiologik jihatdan tahlil qilingan. Manzillilikda yuzaga keladigan ikki xil xato – yordamga loyiq bo‘lmaganlarning tizimga kiritilishi (inklyuziya xatosi) va haqiqatan muhtoj oilalarning chetda qolishi (eksklyuziya xatosi) – texnik nosozlik sifatida emas, institutsional-sotsiologik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda 2026-yil 1-fevraldan yuritila boshlangan yagona Ijtimoiy reyestr tajribasi xorijdagi “raqamli farovonlik davlati” bilan bog‘liq muammolar bilan qiyoslangan. Natijada xatolar tipologiyasi hamda huquqqa asoslangan raqamli manzillilik modelining besh tarkibiy qismi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar

ijtimoiy ta’minot huquqi, raqamli manzillilik, Ijtimoiy reyestr, eksklyuziya xatosi, algoritmik boshqaruv, ko‘cha darajasidagi byurokratiya, imkoniyatlar yondashuvi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari.

DOI: 10.5281/zenodo.23886101

KIRISH

Ijtimoiy huquqlar to‘g‘risidagi munozaralar uzoq yillar davomida asosan “qancha?” degan savol atrofida olib borildi: nafaqa miqdori qancha, byudjetdan qancha mablag‘ ajratiladi, qancha oila qamrab olinadi. Raqamli boshqaruvga o‘tilishi bilan bu savol yoniga yana biri qo‘shildi: “kim va qaysi mezon asosida qaror qabul qiladi?”. Bugungi kunda ijtimoiy yordam olish huquqi ko‘p hollarda fuqaro bilan davlat xizmatchisi o‘rtasidagi suhbatda emas, turli idoralarning ma’lumotlar bazalarini o‘zaro solishtiradigan axborot tizimida aniqlanmoqda. Bu o‘zgarish ijtimoiy ta’minot huquqini amalga oshirish mexanizmini sezilarli darajada yangiladi, ammo ayni paytda ilgari kuzatilmagan xavflarni ham yuzaga keltirdi.

O‘zbekiston uchun bu masala amaliy ahamiyatga ega. 2023-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 1-moddasida mamlakat ijtimoiy davlat ekani belgilab qo‘yilgan [1]. Prezidentning 2025-yil 26-dekabrdagi PF–258-son Farmoni bilan 2026-yil 1-fevraldan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” va Kambag‘al oilalar reyestri negizida yagona Ijtimoiy reyestr yuritila boshlandi; unda oilalar “davlat ta’minotidagi oila”, “kambag‘al oila” va “kambag‘allik chegarasidagi oila” toifalariga ajratiladi [2]. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, avvalgi tizim doirasida 1,8 million oilaning ijtimoiy holati baholanib, ulardan 739 mingtasi reyestrga kiritilgan [3]. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yilning dastlabki sakkiz oyida kambag‘allik darajasi 5,8 foizdan 3,9 foizgacha pasaygan [4].

Shunga qaramay, aynan 2026-yilda reyestr bilan bog‘liq muammolar davlat rahbari darajasida ochiq muhokama qilina boshladi. 2026-yil 16-iyulda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ayrim hududlarda fuqarolarni reyestrga kiritish asossiz rad etilayotgani yoki ular sun’iy ravishda reyestrdan chiqarilayotgani tanqid qilindi. Xususan, 184 ta mahallada bir oy ichida kelib tushgan 2 mingta arizaning barchasi rad etilgani, reyestr masalasida Prezidentga yo‘llangan murojaatlar soni yil boshidan buyon 30 mingtadan 46 mingtaga yetgani qayd etildi [5; 6]. Boshqa tomondan, 2023-yil dekabrida o‘tkazilgan davra suhbatida O‘zbekiston XDP ishchi guruhlarining Navoiy va Jizzax viloyatlaridagi o‘rganishlariga tayanib, o‘sha paytdagi reyestrda hisobga olingan oilalarning 5–6 foizi aslida o‘ziga to‘q oilalar ekani aytilgan edi [7]. Bitta tizimda bir-biriga qarama-qarshi ikki xatoning bir vaqtda uchrashi, ya’ni muhtojlarning chetda qolishi va muhtoj bo‘lmaganlarning yordam olishi ushbu maqolaning asosiy tadqiqot muammosidir.

Tadqiqotning maqsadi – raqamli manzillilikda uchraydigan inklyuziya va eksklyuziya xatolarini ijtimoiy ta’minot huquqi nuqtai nazaridan sotsiologik tahlil qilish hamda ularni kamaytirishning institutsional mexanizmlarini asoslashdan iborat. Ishda 2025–2026-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni hujjatli tahlil qilish, rasmiy statistik ma’lumotlarni ikkilamchi tahlil qilish va xorijiy tajribani institutsional qiyoslash usullari qo‘llanildi. Nazariy asos sifatida A. Senning imkoniyatlar yondashuvi, M. Lipskining ko‘cha darajasidagi byurokratiya nazariyasi hamda bu nazariyani raqamli davr sharoitida rivojlantirgan “tizim darajasidagi byurokratiya” konsepsiyasi olindi. Mazkur yondashuvlarni raqamli jamiyatdagi ijtimoiy institutlarni tahlil qilishga tatbiq etish masalasi muallifning avvalgi ishlarida ko‘rib chiqilgan [8, B. 225–227; 9, B. 394].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro paktning 9-moddasi har bir insonning ijtimoiy ta’minot, shu jumladan ijtimoiy sug‘urta huquqini tan oladi [10]. BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasi 19-sonli Umumiy izohida ushbu huquq mazmunini sharhlab, yordam olish shartlari asosli, mutanosib va shaffof bo‘lishi, fuqarolar esa bu shartlar haqida aniq axborot olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi [11, para. 24–26]. Qo‘mitaning fikricha, ijtimoiy ta’minot huquqi buzilgan har bir shaxs sudga yoki boshqa tegishli himoya vositalariga samarali murojaat qila olishi kerak [11, para. 77]. Demak, xalqaro huquq nuqtai nazaridan manzillilik o‘z-o‘zidan maqsad hisoblanmaydi: u shaffof mezonlar va shikoyat qilishning samarali tartibi mavjud bo‘lgandagina huquqiy jihatdan asosli bo‘ladi.

Manzillilik esa boshqa mantiqqa tayanadi. Uning asosiy savoli – cheklangan mablag‘ni eng muhtoj qatlamga qanday yetkazish. Jahon bankining manzillilikka bag‘ishlangan keng qamrovli tadqiqotida ko‘rsatilishicha, har qanday manzilli tizimda ikki turdagi xato muqarrar ravishda uchraydi: yordamga loyiq bo‘lmaganlarni qamrab olish (inklyuziya xatosi) va loyiq bo‘lganlarni chetda qoldirish (eksklyuziya xatosi). Bunda bir xatoni kamaytirishga qaratilgan choralar ko‘pincha ikkinchisining ortishiga olib keladi [12].

Sotsiologik jihatdan bu ikki xato jamiyat va boshqaruv uchun bir xil ahamiyatga ega emas. Inklyuziya xatosi byudjet mablag‘ining noo‘rin sarflanishi sifatida tez ko‘zga tashlanadi va nazorat organlari uni nisbatan oson aniqlaydi. Eksklyuziya xatosini esa ko‘rish qiyin: reyestrga kira olmagan oila statistikada umuman aks etmaydi va faqat shikoyat bilan murojaat qilgandagina ma’lum bo‘ladi. Shu sababli boshqaruv tizimlari odatda inklyuziya xatosiga qarshi kurashga ko‘proq e’tibor beradi, eksklyuziya xatosi esa uzoq vaqt yashirin qoladi. Fikrimizcha, aynan shu nomutanosiblik raqamli manzillilikning asosiy ijtimoiy xavfidir, chunki bunda huquq egasining manfaati emas, byudjet mablag‘ini tejash birinchi o‘ringa chiqadi.

Xorijiy tajriba bu xavf nazariy taxmin emasligini ko‘rsatadi. BMTning o‘ta qashshoqlik va inson huquqlari bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi F. Alston 2019-yilgi ma’ruzasida “raqamli farovonlik davlati” (digital welfare state) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. U ko‘plab mamlakatlarda avtomatlashtirilgan tizimlar ijtimoiy ta’minotni yaxshilashdan ko‘ra xarajatlarni qisqartirish va fuqarolar ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilayotganidan ogohlantirgan [13]. AQSh tajribasini o‘rgangan V. Yubenks esa avtomatlashtirilgan qarorlar kam ta’minlangan qatlamni o‘ziga xos “raqamli qashshoqlik uyi”ga qamab qo‘yishini, ya’ni tizim xatosini isbotlash va tuzatish yuki to‘liq fuqaroning zimmasiga tushishini ko‘rsatib bergan [14].

Niderlandiya tajribasi bu borada alohida e’tiborga loyiq. Gaaga tuman sudi 2020-yil 5-fevraldagi qarori bilan ijtimoiy yordam sohasidagi firibgarlikni aniqlashga mo‘ljallangan SyRI tizimini shaffof emasligi hamda

shaxsiy hayot daxlsizligiga nomutanosib aralashuvi sababli Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasiga zid deb topdi [15]. Yevropa Ittifoqi 2024-yilda qabul qilgan Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi reglamentda ham davlat ijtimoiy yordami va xizmatlaridan foydalanish huquqini baholaydigan tizimlar “yuqori xavfli” toifaga kiritilgan [16, Annex III, 5(a)]. Kanadada 2019-yildan boshlab davlat organlari avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimini joriy etishdan oldin uning fuqarolar huquqlariga ta’sirini oldindan baholashi shart [17]. Lotin Amerikasi mamlakatlari, xususan Chili tajribasida fuqaro ijtimoiy reyestrdagi o‘z ma’lumotlarini ko‘rib chiqishi va ularni yangilash yoki tuzatishni so‘rashi mumkin; bu eksklyuziya xatosini kamaytirishning amaliy vositasi sifatida baholanadi [12].

Nazariy jihatdan bu jarayonni M. Bovens va S. Zouridis “ko‘cha darajasidagi byurokratiyadan tizim darajasidagi byurokratiyaga” o‘tish deb ta’riflagan [18, P. 174]. M. Lipski davlat siyosati amalda fuqaro bilan bevosita ishlaydigan quyi bo‘g‘in xodimlarining kundalik qarorlari orqali shakllanishini ko‘rsatib bergan edi [19, P. xii]. Raqamli tizimlarda esa qaror qabul qilish vakolatining bir qismi tizimni loyihalovchilar va dasturchilarga o‘tadi. Xodimning vaziyatdan kelib chiqib qaror qabul qilish erkinligi, ya’ni diskretsiya, butunlay yo‘qolmaydi: u yashirin shaklga o‘tib, ko‘rsatkichlar tanlovi, chegara qiymatlari va ma’lumotlar sifatida o‘z ifodasini topadi [20]. Natijada fuqaro “qarorni kim qabul qildi?” degan savolga javob topishda qiynaladi, bu esa davlat boshqaruvidagi shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga bevosita ta’sir qiladi [21].

NATIJA VA MUHOKAMA

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi turli idoralarga tarqoq bo‘lgan modeldan yagona institutsional modelga o‘tdi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi va hududlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi, “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimining ishga tushirilishi va yagona Ijtimoiy reyestrga o‘tilishi bu jarayonning asosiy bosqichlari bo‘ldi [2]. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi uch yilda ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar soni 23 tadan 140 taga yetgan [22]. 2026-yil davomida qabul qilingan qarorlar va bildirilgan tanqidiy fikrlarni xronologik tartibda ko‘rib chiqish manzillilik siyosatidagi muhim o‘zgarishni aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. 2026-yilda Ijtimoiy reyestr bilan bog‘liq asosiy institutsional o‘zgarishlar

Sana / hujjat	Mazmuni	Manzillilik uchun ahamiyati
26.12.2025, PF–258-son Farmon	Yagona Ijtimoiy reyestr, uch toifa; 2026-yil 1-fevraldan tuman (shahar) hokimliklari huzurida apellyatsiya kengashlari tashkil etiladi [23]	Eksklyuziya xatosini tuzatishning rasmiy kanali paydo bo‘ldi
02.02.2026, VMQ 35-son qarori	Oldingi reyestrlardagi oilalar maqomi yangi tizimga avtomatik tarzda ko‘chirildi [24]	Uzluksizlik ta’minlandi, biroq eski ma’lumotlardagi xatolar ham ko‘chib o‘tishi xavfi saqlanib qoldi
PF–258-son Farmon	“Mahalla yettiligi”ga og‘ir hayotiy vaziyatdagi ayrim oilalarni tavsiya asosida “kambag‘allik chegarasidagi oila” toifasiga kiritish huquqi berildi [3; 28]	Algoritmdan tashqari, xodim tomonidan baholash imkoniyati
17.04.2026 (taqdimot)	2026-yil 1-iyundan “Inson” markazlari xodimlari vasiylik va homiylik komissiyalari tarkibiga kiritiladi [25]	Quyi bo‘g‘in ijtimoiy xodimining roli kuchaydi
16.07.2026, videoselektor yig‘ilishi	Asossiz rad etish holatlari tanqid qilindi, Bosh prokuraturaga Ijtimoiy reyestr to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilish topshirildi [5; 6]	Eksklyuziya xatosi davlat siyosatining ustuvor masalalari qatoriga chiqdi
Sentabr, 2026	Ijtimoiy reyestrga kiritish tizimini yil yakunigacha qayta ko‘rib chiqish; daromad bilan birga surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik, oila a’zosining xorijda ishlashi ham hisobga olinadi [26]	Bir o‘lchovli (daromad) baholashdan ko‘p o‘lchovli baholashga o‘tish
15.09.2026	“Avval tashxis – keyin yechim” tamoyili; sun’iy intellekt yordamida toifalarga ajratilgan fuqarolarni “mahalla yettiligi”ga biriktirish [4]	Algoritmik boshqaruv qamrovi kengaymoqda

1-jadval ma’lumotlari muhim bir tendensiyani ko‘rsatadi: 2026-yil davomida davlat siyosatida asosiy e’tibor “aniqlik”dan “adolat”ga qarab o‘zgarib bormoqda. Yil boshida reyestrlarni birlashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirish birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, yoz va kuz oylarida asossiz rad etishlar, apellyatsiya hamda baholash mezonlarini kengaytirish masalalari oldinga chiqdi. Daromad mezoniga surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik va mehnat migratsiyasi kabi omillarning qo‘shilishi, A. Sen ta’biri bilan aytganda, “resurslar” o‘lchovidan inson amalda erisha oladigan holatlar majmui bo‘lgan “imkoniyatlar” o‘lchoviga yaqinlashishni anglatadi [27, P. 75]. Haqiqatan ham, daromadi bir xil bo‘lgan ikki oila, ulardan biri sog‘lom a’zolardan iborat, ikkinchisida esa parvarishga muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxs yashasa, real hayotiy imkoniyatlari jihatidan teng emas.

Bu fikrni rasmiy statistika ham tasdiqlaydi. Respublika bo‘yicha kambag‘allik darajasi 3,9 foizga tushgan bo‘lsada, 3 yoshgacha farzandi bor oilalarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 6,5 foizni tashkil etmoqda [26]. Demak, oila hayot siklining muayyan bosqichi, ya’ni yosh bolani parvarishlash davri ota-onaning mehnat bozoriga chiqish imkoniyatini cheklab, kambag‘allik xavfini qariyb 1,7 barobar oshiradi. Mehnatga layoqatli kambag‘al oila a’zolari olti oy davomida ishlamasa yoki taklif etilgan ishni rad etsa, nafaqa va yordamlarni to‘xtatish tartibi [28] faollashtiruvchi siyosat sifatida o‘zini oqlashi mumkin. Biroq bu tartib uyda parvarish bilan band bo‘lgan, ko‘pincha ayollar zimmasiga tushadigan haq to‘lanmaydigan mehnatni hisobga olmasa, eksklyuziyaning yangi manbaiga aylanishi ehtimoli bor.

Mahalla instituti bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. “Mahalla yettiligi”ga reyestrga kiritish huquqining berilishi va “Inson” markazlari xodimlari vakolatlarining kengaytirilishi Lipski nazariyasidagi ko‘cha darajasidagi byurokratlar rolining qayta tiklanayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy ish nazariyasida ham muhtojlikni aniqlash har bir oilaning individual vaziyatini bevosita o‘rganishni talab qilishi qayd etiladi [29]. Biroq bu yerda ham ikki tomonlama xavf mavjud. Bir tomondan, mahalla darajasidagi xodim algoritm aniqlay olmaydigan hayotiy vaziyatni ko‘ra oladi. Ikkinchi tomondan, 184 ta mahalladagi holat quyi bo‘g‘in diskretsiyasi nazoratsiz qolganda eksklyuziya manbaiga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi: rejadagi ko‘rsatkichga erishish talabi ostida “reyestrdagi oilalar sonini kamaytirish” haqiqiy kambag‘allikni kamaytirish bilan almashtiriladi. Sotsiologiyada bu hodisa D. Kempbell qonuni deb ataladi: miqdoriy ijtimoiy ko‘rsatkich qaror qabul qilishda qanchalik ko‘p qo‘llanilsa, u shunchalik buzib ko‘rsatilish bosimiga uchraydi [30, P. 85].

Yuqoridagi tahlil asosida raqamli manzillilikda uchraydigan xatolarni kelib chiqish manbaiga ko‘ra besh turga ajratishni taklif qilamiz (2-jadval). Bunday tasnif amaliy ahamiyatga ega, chunki har bir xato turi o‘ziga xos tuzatish mexanizmini talab qiladi.

2-jadval. Raqamli manzillilikdagi xatolar tipologiyasi (muallif ishlanmasi)

Xato turi	Kelib chiqish manbai	Ijtimoiy-huquqiy oqibati	Tuzatish mexanizmi
Ma’lumot xatosi	Eskirgan yoki noto‘g‘ri ma’lumot, idoralararo bazalarning mos kelmasligi	Fuqaro o‘zi bilmagan holda huquqdan mahrum bo‘ladi yoki asossiz yordam oladi	Fuqaroning o‘z ma’lumotini ko‘rish va tuzatishni talab qilish huquqi
Mezon xatosi	Faqat daromadga tayanish; oila tarkibi, sog‘liq va parvarish yuki hisobga olinmasligi	“Yashirin muhtojlar” chetda qoladi	Ko‘p o‘lchovli baholash
Diskretsiya xatosi	Quyi bo‘g‘in xodimining asossiz rad etishi yoki noqonuniy kiritishi	Davlat institutlariga ishonchning pasayishi, korrupsiya xavfi	Yozma shaklda asoslangan rad javobi, ikki bosqichli tekshiruv
Kirish xatosi	Raqamli savodxonlikning pastligi, axborotsizlik, ariza bermaslik	“Ko‘rinmas” kambag‘allik	Proaktiv aniqlash, xonadonbay o‘rganish
Shartlilik xatosi	Bandlik sharti uyda parvarish bilan bandlik va boshqa uzrli holatlarni hisobga olmasligi	Ayollar va parvarishchi oila a’zolari zarar ko‘radi	Istisnolar ro‘yxati, xodim tomonidan qayta ko‘rib chiqish

Tipologiyadan ko‘rinib turibdiki, odatda “raqamli” deb ataladigan muammolarning faqat bir qismi texnik xususiyatga ega. Mezon, diskretsiya va shartlilik xatolari mohiyatan institutsional va me’yoriy masalalardir: ular algoritmning qanday yozilganidan ko‘ra, unga qaysi qadriyatlar asos qilib olingani va qaror ishlab chiqishda kimlarning fikri inobatga olinganiga bog‘liq. Shu bois raqamli manzillilikni takomillashtirish dasturiy ta’minotni yangilash bilan cheklanmasligi, huquqiy kafolatlar va institutsional nazorat bilan to‘ldirilishi lozim.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan va milliy sharoitga moslashtirilgan huquqqa asoslangan raqamli manzillilik modelining besh tarkibiy qismini taklif qilamiz.

Birinchidan, asoslangan rad javobi standarti. Reyestrga kiritish rad etilgan yoki oila reyestrdan chiqarilgan har bir holatda fuqaroga qaror qaysi mezon va qaysi ma’lumot asosida qabul qilingani tushunarli tilda, elektron va qog‘oz shaklda

yetkazilishi, unda apellyatsiya kengashiga murojaat qilish tartibi ko‘rsatilishi lozim. Bu 19-sonli Umumiy izohdagi shaffoflik talabiga va Yevropa Ittifoqi reglamentida yuqori xavfli tizimlar uchun belgilangan tushuntirish berish majburiyatiga mos keladi.

Ikkinchidan, fuqaroning o‘z ijtimoiy profili bilan tanishish huquqi. Chili tajribasidan kelib chiqib, fuqaro mobil ilova yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali tizim u haqida qanday ma’lumotlarni hisobga olayotganini ko‘ra olishi va noto‘g‘ri ma’lumotni tuzatishni so‘rab murojaat qila olishi zarur. Bu ma’lumotlardagi xatolarni aniqlash mas’uliyatini xodim bilan fuqaro o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi.

Uchinchidan, eksklyuziya xatosini o‘lchash. Hozirgi nazorat amaliyoti asosan reyestrga asossiz kiritilganlarni aniqlashga qaratilgan. Fikrimizcha, bu bilan bir qatorda har yili reprezentativ tanlanma asosida reyestrdan tashqarida qolgan, ammo mezonlarga mos keladigan oilalar ulushini aniqlaydigan mustaqil sotsiologik tadqiqot – “ko‘rinmas kambag‘allik auditi” o‘tkazilishi va uning natijalari ochiq e’lon qilinishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, algoritmik ta’sirni oldindan baholash. Kanada tajribasiga tayanib, fuqarolarni sun’iy intellekt yordamida toifalarga ajratish kabi har qanday yangi avtomatlashtirilgan mexanizm joriy etilishidan oldin uning turli ijtimoiy guruhlarga (ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, qishloq aholisi, mehnat migrantlari oilalari) ta’sirini baholash va natijalarini e’lon qilish tartibini joriy etish taklif etiladi.

Beshinchidan, xodim tomonidan qayta ko‘rib chiqish kafolati. Avtomatik ravishda rad etilgan har bir ariza “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining ijtimoiy xodimi tomonidan bevosita o‘rganilishi, apellyatsiya kengashlari faoliyati bo‘yicha esa hududlar kesimida kelib tushgan, qanoatlantirilgan va rad etilgan murojaatlar statistikasi muntazam ravishda ochiq e’lon qilib borilishi lozim.

Fikrimizcha, ushbu choralarning joriy etilishi eksklyuziya xatosini ko‘rinadigan va o‘lchanadigan hodisaga aylantiradi, reyestr masalasida Prezidentga yo‘llanayotgan murojaatlar sonini kamaytiradi hamda aholining raqamli tizimlarga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari raqamli manzillilikni betaraf texnik vosita sifatida emas, ijtimoiy ta’minot huquqini amalga oshirishning yangi institutsional shakli sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli reyestrlar yordamni tezroq va shaffofroq yetkazish imkonini bersa-da, inklyuziya va eksklyuziya xatolarini to‘liq bartaraf eta olmaydi, balki ularning shakli va ko‘zga tashlanish darajasini o‘zgartiradi.

O‘zbekistonning 2026-yildagi tajribasida muhim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda: apellyatsiya kengashlarining tashkil etilishi, “mahalla yettiligi” va “Inson” markazlari vakolatlarining kengaytirilishi hamda baholash mezonlarini ko‘p o‘lchovli qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar manzillilik siyosatida asosiy e’tibor “aniqlik”dan “adolat”ga qarab o‘zgarayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, asossiz rad etish holatlari eksklyuziya xatosini muntazam o‘lchash va uni boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari qatoriga kiritish zarurligini tasdiqlaydi.

Maqolada taklif etilgan huquqqa asoslangan raqamli manzillilik modeli – asoslangan rad javobi, fuqaroning o‘z ijtimoiy profili bilan tanishish huquqi, eksklyuziya xatosini o‘lchash, algoritmik ta’sirni oldindan baholash va xodim tomonidan qayta ko‘rib chiqish kafolati – ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy tamoyilini raqamli muhitda amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Mavzuni keyingi bosqichda hududlar kesimida, xususan Farg‘ona viloyati misolida, reyestrga kiritilmagan oilalarning ijtimoiy-demografik tavsifini empirik sotsiologik so‘rov asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–258-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

3. Matters of expanding social services coverage in the regions and children protection reviewed // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 17.12.2025 // https://president.uz/en/lists/view/8793

4. Kambag‘allik darajasi 3,9 foizgacha pasaydi // Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy sayti. 15.09.2026 // https://gov.uz/uz/bv/news/view/220326

5. 184 ta mahallada bir oy ichida kelgan 2 ming arizaning barchasi asossiz rad qilingan // O‘zA. 16.07.2026 // https://uza.uz/ar/posts/184-ta-mahallada-bir-oy-ichida-kelgan-2-ming-arizaning-barchasi-asossiz-rad-qilingan_883466

6. Mahallalarda ijtimoiy yordamlar ko‘lami kengaytiriladi // Kun.uz. 17.07.2026 // https://kun.uz/news/2026/07/17/mahallalarda-ijtimoiy-yordamlar-kolami-kengaytiriladi-0bdfb0

7. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirganlarning 5–6 foizi o‘ziga to‘q oilalar ekanligi aniqlanmoqda // O‘zA. 19.12.2023 // https://uza.uz/ar/posts/ijtimoiy-himoya-yagona-reyestriga-kirganlarning-5-6-foizi-oziga-toq-oilalar-ekanligi-aniqlanmoqda_549751

8. Boliboyev A.X. Raqamli jamiyatda ijtimoiy institutlar transformatsiyasining sotsiologik tahlili // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. – 2026. – Vol. 6, Issue 02. – B. 224–231.

9. Boliboyev A.X. Raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy himoya tizimida inson kapitalini boshqarishning zamonaviy modellari // “Raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy ta’lim: muammolar, innovatsion yechimlar va sun’iy intellektning yangi imkoniyatlari” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. I-tom. – Angren: Angren universiteti, 2026. – B. 393–395.

10. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. – Nyu-York, 1966-yil 16-dekabr (O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda qo‘shilgan).

11. UN Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 19: The right to social security (art. 9). E/C.12/GC/19. – Geneva, 4 February 2008.

12. Grosh M., Leite P., Wai-Poi M., Tesliuc E. Revisiting Targeting in Social Assistance: A New Look at Old Dilemmas. – Washington, DC: World Bank, 2022.

13. Report of the Special Rapporteur on extreme poverty and human rights (Ph. Alston). UN Doc. A/74/493. – New York: UN General Assembly, 11 October 2019.

14. Eubanks V. Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor. – New York: St. Martin’s Press, 2018.

15. Rechtbank Den Haag. Uitspraak van 5 februari 2020 (NJCM c.s. tegen De Staat der Nederlanden). ECLI:NL:RBDHA:2020:865.

16. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // Official Journal of the European Union. – 12.07.2024.

17. Treasury Board of Canada Secretariat. Directive on Automated Decision-Making. – Ottawa, 2019.

18. Bovens M., Zouridis S. From Street-Level to System-Level Bureaucracies: How Information and Communication Technology Is Transforming Administrative Discretion and Constitutional Control // Public Administration Review. – 2002. – Vol. 62, No. 2. – P. 174–184.

19. Lipsky M. Street-Level Bureaucracy: Dilemmas of the Individual in Public Services. – New York: Russell Sage Foundation, 1980.

20. Busch P.A., Henriksen H.Z. Digital discretion: A systematic literature review of ICT and street-level discretion // Information Polity. – 2018. – Vol. 23, No. 1. – P. 3–28.

21. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.

22. Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. 04.08.2026 // https://gov.uz/oz/news/view/201664

23. Yagona ijtimoiy reestr joriy etilmoqda: kimlar va qanday tartibda yordam oladi? // Anhor.uz. 27.12.2025 // https://anhor.uz/uzl/news/yagona-ijtimoiy-reestr-joriy-etilmoqda/

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-fevraldagi “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 35-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

25. Ijtimoiy himoya tizimida yangi mexanizmlar joriy etiladi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 17.04.2026 // https://president.uz/oz/lists/view/9116

26. Ishlaydigan onalarning farzandi bir yoshga to‘lguniga qadar nafaqa to‘lanadi // Anhor.uz. 03.09.2026 // https://anhor.uz/uz/news/ishlaydigan-onalarning-farzandi-bir-yoshga-tolguniga-qadar-nafaqa-tolanadi

27. Sen A. Development as Freedom. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.

28. Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalar uchun yangi qo‘llab-quvvatlash tartiblari joriy etiladi // Spot.uz. 27.12.2025 // https://www.spot.uz/oz/2025/12/27/social-protection/

29. Abduraxmonova M.M., Alekseyeva V.S., Latipova N.M., Akramov D.O. Yordamga muhtoj bolalar bilan ijtimoiy ish. Darslik. – Farg‘ona, 2021. – 476 b.

30. Campbell D.T. Assessing the impact of planned social change // Evaluation and Program Planning. – 1979. – Vol. 2, No. 1. – P. 67–90.